

TABIIY TUSDAFI FAVQULODDA VAZIYATLARNING VUJUDGA KELISHI

SABABLARI

Muradov Sirojiddin

Karimov Bohodir

Siddiqova Madinabonu

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrası o‘qituvchilari.

Qarshi, O‘zbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14028591>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. O‘lat vafo sarg‘ayma isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar haqida muallifning nazariy, ummumlashtiruvchi fikrlari keltirilgan.

Maqola mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yunalishlari talablari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik mutaxassislari hamda keng izlanuvchilar uchun muljallangan.

Kalit so‘zlar va iboralar: “epidemiya, favqulodda vaziyat, epizootika, epifitotika, vabo, sibir yarasi, botulizm, transchegara”.

CAUSES OF NATURAL EMERGENCIES

Abstract. In this article, Emergency epidemiological, epizootic and epiphytotic situations.

The author's theoretical and generalizing thoughts are presented about particularly dangerous infections that cause rare diseases such as plague yellow fever. The article is intended for the requirements of labor protection and technical safety directions, labor protection and safety specialists, and general readers.

Key words and phrases: "epidemic, emergency, epizootic, epiphytotic, cholera, anthrax, botulism, transboundary".

ПРИЧИНЫ ПРИРОДНЫХ ЧС

Аннотация. В данной статье рассматриваются чрезвычайные эпидемиологические, эпизоотические и эпифитотические ситуации. Изложены теоретические и обобщающие мысли автора об особо опасных инфекциях, вызывающих такие редкие заболевания, как чумная желтая лихорадка. Статья предназначена для требований направлений охраны труда и технической безопасности, специалистов по охране труда и технике безопасности, а также широкого круга читателей.

Ключевые слова и фразы: «эпидемия, чрезвычайная ситуация, эпизоотия, эпифитотия, холера, сибирская язва, ботулизм, трансграничный».

Kirish. Ma'lumki, favqulodda vaziyat (FV) – bu muayyan xududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'ligi yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan halokat, stixiyali falokat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra FVlar texnogen, tabiiy va ekologik turlarga ajratiladi.

Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen tushdagi FVlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida, 1998 yil 27 oktyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 455-sonli "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to'g'risida"gi qaroriga ilova tasdiqlandi. Mazkur ilovaga ko'ra, FVlar, ularning vujudga kelish sabablariga ko'ra, tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlarga bo'linadi.

Texnogen tushdagi FVlar – bu odamning ishlab chiqarish yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan halokat (avariya)lar.

Rivojlanish davrida inson o'zi uchun yaratgan qulayliklar, ya'ni g'ildirakning kashf etilishi, mashinalarni yaratilishi, atomning bo'ysundirilishi, elektromagnit to'lqinlarni aniqlanishi va boshqalar, odamga g'am va zahmat keltiruvchi sabablar bo'lmish texnogen tushdagi halokatlarni kelib chiqishiga imkoniyat yaratib beradi. Shunday qilib jamiyatning texnik progressi uchun odamzod juda katta haq to'lashga majbur bo'lmoqda. Chernobol AESdagi halokat, yadroviy sinovlar oqibatlar, sanog'i yo'q transport FVlar va ishlab chiqarishdagi avariya, ommaviy zaharlanishlar, radiatsion zararlanishlar va boshqalar texnogen tushdagi havflar sifatida misol qilib keltirishimiz mumkin.

Texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil ko'rinishdagi falokatlar kirib, ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to'g'risida" gi 455-son qarorida ko'rsatib o'tilgan¹.

I. TEXNOGEN XUSUSIYATLI FAVQULODDA VAZIYATLAR

Texnogen tushdagidagi favqulodda vaziyatlarga 7 xil tushdagi vaziyatlar kiradi:

1) Transportlardagi avariya va halokatlar - ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga hamda qidiruv va avariya-qidiruv ishlarini talab qiladigan avia halokatlar;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar tasnifi to'g'risida" gi 455-son qarori

➤ yong‘inga, portlashga, harakatlanuvchi tarkibining buzilishiga sabab bo‘lgan va temir yo‘l xodimlarining halokat hududidagi temir yo‘l platformalarida, vokzal binolarida va shahar imoratlarida bo‘lgan odamlar o‘limiga, shuningdek tashilayotgan kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi zaharli modda (KTZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan temir yo‘l transportidagi halokat va falokatlar;

➤ portlashlarga, yong‘inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTZM larning zararli xossalari namoyon bo‘lishiga va odamlar o‘limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo‘ladigan avtomobil transportining halokati va avariylari, shu jumladan, yo‘l-transport hodisalari;

➤ odamlarning o‘limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan metropoliten bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar, avariylar, yong‘inlar²;

➤ gaz, neft mahsulotlarining otilib chiqishiga, ochiq neft va gaz favvoralarining yonib ketishiga sabab bo‘ladigan magistral quvurlardagi avariylar.

2) Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariylar. Tevarak-atrof tabiiy muhitga ta’sir qiluvchi zaharli moddalarning (avariya holatida) odamlar, hayvonlar va o‘simliklarning ko‘plab shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariylar, yong‘in va portlashlar.

3) Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyektlardagi avariylar. Texnologik jarayonda portlaydigan, oson yonib ketadigan hamda boshqa yong‘in uchun xavfli moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan obyektlardagi odamlarning mexanik va termik shikastlanishlariga, zaharlanishlariga va o‘limiga, asosiy ishlab chiqarish zaxiralarining nobud bo‘lishiga, favqulodda vaziyatlar hududlarida ishlab chiqarish maromining va odamlar xayot faolitining buzilishiga olib keladigan yong‘inlar va portlashlar;

Odamlarning shikastlanishiga, zaharlanishiga va o‘limiga olib keladigan hamda qidiruv-qutqarish ishlarini o‘tkazishni, nafas olish organlarini muhofaza qilishning maxsus anjomlarini va vositalarini qo‘llanishni talab qiluvchi ko‘mir shaxtalaridagi va kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog‘liq avariylar, yong‘inlar va jinslar qo‘porilishi .

4) Energetika va kommunal tizimlardagi avariylar. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mas’ul iste’molchilarining avariya tufayli energiya ta’minotisiz qolishiga hamda aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan GES, IES lardagi, tuman issiqlik markazlaridagi elektr tarmoqlaridagi

² Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2011, B. 94.

bug‘qozon qurilmalaridagi, kompressor, gaz taqsimlash shaxobchalaridagi va boshqa energiya ta‘minoti obyektlaridagi avariya, yong‘inlar, aholi hayot faoliyatining buzilishiga va salomatligiga xavf tug‘ilishiga olib keladigan gaz quvurlaridagi, suv chiqarish inshootlaridagi, suv quvurlaridagi, kanalizatsiya va boshqa kommunal obyektlardagi avariya;

Atmosfera, tuproq, yer osti va yer usti suvlarining odamlar salomatligiga xavf tug‘diruvchi darajada konsentratsiyadagi zararli moddalar bilan ifloslanishiga sabab bo‘ladigan gaz tozalash qurilmalaridagi, biologik va boshqa tozalash inshootlaridagi avariya.

5) Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog‘liq avariya. Odamlar o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan va zudlik bilan avariya qutqaruv ishlari o‘tkazilishini hamda zarar ko‘rganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilishini talab qiladigan maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqa ijtimoiy yo‘nalishdagi obyektlar, shuningdek, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to‘satdan buzilishi, yong‘inlar, gaz portlashi va boshqa hodisalar.

6) Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariya. Sanitariya-himoya hududi tashqarisiga chiqarib tashlanishi natijasida paydo bo‘lgan yuqori darajadagi radiaktivlik odamlarning yo‘l qo‘yiladigan ko‘p miqdorda nurlanishini keltirib chiqargan texnologik jarayonda radiaktiv moddalardan foydaladigan obyektlardagi avariya; radioaktiv materiallarni tashish vaqtidagi avariya; Radioizotop buyumlarning yo‘qotilishi; biologik vositalarni va ulardan olinadigan preparatlarni tayyorlash, saqlash va tashishni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa muassasalarda biologik vositalarning atrof-muhitga chiqib ketishi yoki yo‘qotilishi bilan bog‘liq vaziyatlar.

7) Gidrotexnik inshootlardagi halokatlar va avariya.

Suv omborlarida, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog‘lardagi ko‘llardan suv urib ketishi natijasida vujudga kelgan hamda suv bosgan hududlarda odamlar o‘limiga, sanoat va qishloq xo‘jaligi obyektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib keladigan va shoshilinch ko‘chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari.

Shu bilan bir qatorda, yuqorida qayd etilganidek (455-sonli qarorning ilovasiga ko‘ra) texnogen FVlar (FV paydo bo‘lgan kunda) zarar ko‘rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko‘lamlariga (xududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara turlariga bo‘linadi.

Lokal – bu FVlar natijasida 10 dan ortiq bo‘lmagan odam jabrlangan, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo‘lmaganni tashkil etadigan hamda FV

zonasi ishlab chiqarish ob'ekti yoki ijtimoiy maqsadli ob'ekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan FV.

Mahalliy – bu FVlar natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odam jabrlangan, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p emas, tashkil etadigan hamda FV zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan FV.

Respublika – bu FVlar natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, moddiy zarar eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortiqni tashkil etadigan hamda FV zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan FV.

Transchegara – bu FVlar oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, chet elda yuz bergan va O'zbekiston xududiga daxl qiladigan FV.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari. Texnogen tusdagi halokatlarning asosiy sabablari quydagi-lardan iborat:

- inshootlarni loyihalashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar;
- texnika xavfsizligiga rioya qilmaslik;
- ishlab chiqarishda doimiy nazoratning susayishi va ayniqsa, yengil alanga oluvchi, yong'inga xavfli moddalardan foydalanishda e'tiborsizlik;
- ishlab chiqarish texnologiyasida yo'l qo'yilgan xatolik, jihozlarni, mashina va mexanizmlarni o'z vaqtida ta'mirlamaslik;
- mehnat va ishlab chiqarish intizomining pastligi;
- qo'shni ishlab chiqarish korxonalarda yoki energetika, gaz tarmoqlarida yuz bergan halokat;
- halokatlarni keltirib chiqaruvchi tabiiy favqulodda hodisalar.

Texnogen favqulodda vaziyatlar natijasida insonlar qurbon bo'lishi, turli darajada shikastlanishi, atrof-tabiiy muhitning, atmosfera havosining turli zaharli moddalar bilan ifloslanishi, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami nobud bo'lishi, juda katta moddiy zarar ko'rishga olib kelishi kabi oqibatlari kuzatiladi.

Aholi va xududni texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish.

Respublikamizda aholi va hududni texnogen FVlardan muhofaza qilish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Shu jumladan, 1995 yil 20 avgustda «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'grisida»gi qonun qabul kilinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bundan tashqari Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan «Yong'in xavfsizligi oyli», «Yo'l harakati xavfsizligi oyli» kabi tadbirlar ham texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyat yuz berganda harakatlanishga oid tayyorgarlik darajalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ishlab chiqazish sohasida faoliyat yuritayotgan har bir ishchi halokatlar yuz berganda harakatlanish qoidalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Misol uchun, elektr energiyasini tarmoqdan uzishning ham o'ziga xos talablari, gaz, bug' apparatlarini o'chirishning ham o'ziga xos qonun qoidalari mavjud bo'lib, agar texnologik jarayonlar va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasa, inson hayotiga juda katta xavf solishi yoki juda katta moddiy talofatlar keltirishi mumkin.

Har bir ishlab chiqazish sohasi xodimi halokatlar yuz berganda jamoa muhofaza inshootlari joylashgan yerlarni, xavfsizlik joylarga chiqish yo'llarini, yakka himoyalash vositalari bilan ta'minlashni tashkil etishni va ulardan foydalanish tartibini bilishi lozim. Texnologik uskunalarni germetizatsiyalash va ishlash tizimini doimiy nazorat qilish, shu bilan yong'in va portlash xavflarini oldini olish zarur. Elektr asboblarning holatini, sig'imi, qism va tarmoqlarini, bosim ostida ishlashini, nazorat o'lchov asboblari, himoyalash va bloklash apparatlarining ish faoliyatini doimiy nazorat qilish hamda aniqlash kerak.

Har bir tashkilotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatlarning bartaraf etish rejasi ishlab chiqiladi. Ishchi va xizmatchilarning halokat yuzaga kelgan vaziyatlarda o'zini tutish va harakatlanishga tayyorlash tadbirlari tashkil etiladi, ularni bartaraf etish kuch va vositalarining zaruriy zahiralari ko'rib chiqiladi. FV yuzaga kelganda ogohlantirish tizimi va vositalari doimiy shay holatda saqlash, ishchi o'rinlari uchun kerakli shaxsiy himoyalash vositalari sonini ta'minlash zarur.

Xulosa. Halokatlar sodir bo'lganda muhim vazifalardan biri ishlab chiqarish korxonasi va aholi yashash punktlariga xavf haqidagi xabarni etkazish hisoblanadi. Shuningdek, ob'ektning har bir ishchi, xodimi halokat sodir bo'lganda ogohlantirish vositalaridan foydalanish va tegishli tashkilotlarga xabar berishni bilishi zarur.

Qutqaruv va birlamchi tiklash ishlarining tashkiliy asoslari Ma'lumki, dushman tomonidan qo'llaniladigan umumiy qirg'in qurollarining oqibatlari turli xil darajada bo'ladir. Albatta, talafot darajasi ishlatilgan qurol turiga, uning qo'llanilish miqyosiga bog'liq. Yadroviy, kimyoviy, biologik va kombinatsiyalashgan shikastlangan o'choqlarida qutqaruv va tiki ash ishlarini (QBT!) amalga oshirish juda murakkab ahvolda ro'y beradigan sababi buflay paytda hamma inshootlar deyarli shikastlangan, yongan. yiqilgan, suv bosgan, atmosfera hamda barcha yerlar zaharlangan

va shunga o'xshash boshqa noxush holatlar kuzatilgan bo'ladi. Xuddi shunga o'xshash holatlar tinchlik davrida ham (tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari, fojialar oqibatida) kuzatishlarni muntazam. Shu sababdan fuqarolar muhofazasining eng asosiy vazifalaridan biri, harbiy holatlarda va tinchlik davrlaridagi favqulodda vaziyatlarda umumiy shikastlangan o'choqlardagi QBTni amalga oshirish hisoblanadi. Shikastlangan o'choqlarda QBTni olib borishdan maqsad, fuqarolarni qutqarish va zararlangan odamlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarini amalga oshirishda halaqit beradigan avariya-xalqaro to'sish, shikastlangan joylarni tiklash ishlarini amalga oshirishda sharoit yaratish va boshqa vazifalarini bajarish ko'zda tutiladi.

Umumiy qirg'in qurollari qo'llanilganda quyidagi qutqaruv ishlari bajariladi:

- obyektlar tomonidan tizimlarning harakatlanish yo'llarini razvedka qilish;
 - shikastlangan obyektlarda harakat qilishda, yong'inlarni o'chirish va to'sish;
 - zaharlangan, yong'inli. gazga to'lgan, suv bosgan joylarda va yer ostida qolgan holatlarda odamlarni topish va qutqarish,
 - shikastlangan, buzilgan va zaharlangan himoya inshootlaridagi fuqarolarni qutqarish;
 - havo almashtirgichi buzilgan, shikastlangan himoya inshootlariga havoni yetkazib berish;
 - shikastlangan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni tibbiy shoxobchalariga eltib qo'yish,
 - xavfli hududdagi fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish,
 - odamlarni sanitar qayta ishlovdan o'tkazish, uy hayvonlarga veterinariya qayta ishlov berish, texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xom ashyo, suv va yem-xashaklarni dezaktivatsiya va degazatsiya qilish
- Boshqa birlamchi tiklov ishlarga quyidagilar kiradi:
- shikastlangan hududlardagi (zaharlangan, yiqilgan, buzilgan inshootlar) yo'llarni tozalash,
 - qutqaruv ishlarini olib borishda gazli, elektrli, suvli, kanallizatsiya va texnologik tizimlardagi avariyalarni to'sish ishlari;
 - shikastlangan inshootlarni buzish yoki umumiy mustahkamlash;
 - aloqa va kommunal-energetik tarmoqlardagi falokatlarini tuzatish va tiklash ishlari;
 - turli xildagi portlovchi qismlarni. portlovchi aslahalarni topish, zararsizlantirish va yo'qotish ishlari;

QBTni kunu tun, doimiy ravishda har qanday tabiiy sharoitda olib boriladi.

Umumiy qirg'in qurollarining shikastlanish o'chog'ida QBTni olib borish uchun, tinchlik davridayoq tuman fuqarolar muhofazasining boshlig'i qarori bilan fuqaro muhofaza kuchlarining harakat qilish yo'llari tuziladi. Harakatlanuvchan kuchlar tarkibiga shahar, tuman

fuqarolar muhofazasining hududiy, ishlab chiqarish tarnoyilga ko'ra tuzilgan tizimlari hamda harbiylashgan fuqaro muhofazasi qismlari kiradi. Bu kuchlar asosan birinchi va ikkinchi eshelondan va qo'shimcha qismlardan tashkil topadi. Eshelonlar tarkibiga kiruvchi tuzilmalar uzluksiz faoliyat ko'r-satish uchun ular smenalarga bo'linib ishlab chiqarish tarnoyiliga asoslangan bo'ladi. Birinchi eshelonda asosan fuqarolar muhofazasi harbiy qismlari, korxonaning obyekth tuzilmalari va ma'lum qismdagi hududiy tuzilmalari harakatlanadi. Bunda fuqarolar muhofazasining harbiy qismlari va hududiy tizimlari asosan shahar, tuman fuqarolar muhofazasi rejasiga asosan xalq xo'jahgi tarmoqlarining eng muhim obyektlarida QBTI bajaradilar.

Ikkinchl eshelon tizmlari asosan birinchi eshelon tizimlari kuchini oshirish hamda faoliyat ko'rsata olmaydigan tizimlar o'mini egallash maqsadida harakatlanadi. Obyektning fuqarolar muhofazasini harakatlanuvchan kuchlari asosan umumiy otryadi, qutqaruv otryadi hamda ishlarni bajaruvchi tizmlardan tashkil topgan. Fuqarolar muhofazasining texnika vositalari hamda kuchlari shikastlangan hududga juda qisqa vaqtda kirishi, QBTI ni muvaffaqiyatli bajarishi, zamonaviy texnikadan unurnli foydalanishi, ish jarayonida qo'l ostidagi kuchlarni, tizimlarni almashtirib turishi va boshqa ishlarni bajarishi lozim. Albatta, turli xildagi texnikalardan foydalanmay shikastlangan hududda katta, unumli ishlarni bajarib bo'lmaydi. Faqatgina mexanizmlar yordamida, jumladan, qurilish va yo'l mashina va mexanizmlari, kommunal-texnika jihozlari yordamida, yer ostida, buzilgan, yonayotgan, gazga to'lgan inshootlar ichida qolgan, buzilgan himoya inshootlari ostida qolgan fuqarolarni qutqarish va boshqa ishlarni bajarish mumkin. Bajariladigan ishlarni tavsifiga qarab mexanizmlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: bosib qolgan himoya inshootlarini ochish, to'silib qolgan, bosib qolgan joylarni ochish va tozalash, yo'llarni tozalashda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar (ekskavatorlar, traktorlar, buldozerlar, kranlar, yuk tashuvchi mashinalar va boshqalar).

- bosib qolgan chiqish joylari to'silib qolgan inshootlarda teshik ochish uchun ishlatiladigan pnevmatik jihozlar (paralaydigan va urib sindiradigan bolg'alar).

- metallarni kesuvchi jihozlar.

suv haydaydigan mexanizmlar (nasoslar, suv sepadlgan mashinalar, yong'inni o'chiruvchi va boshqalar) suv yo'llari orqali tashuvchi mexanizmlar (paronlar, trayler-tya-gachlar, yuk tashuvchi pritseplar)

ta'mirlovchi va xizmat qiluvchi jihozlar (ta'mirlovchi qismlar, ben-zin, suv quyish, yorituvchi maskanlarda va xizmat ko'rsatuvchi maskanlarda qo'laniladigan jihoz va mexanizmlar).

QBTI muvaffaqiyatli bajarishda mexanizm va mashinalardan oqi-lona foydalanishdan tashqari, razvedka ishlarini o'z vaqtida tashkil etib o'tkazishi. ko'rsatilgan muddatda ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi, shikastlangan o'choqda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarga tuzilmalami jalb etilishi, ishlarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi, tuzilma boshliqlarining shikastlangan o'choqdagi ishlarning tavsifini oldindan o'rganishi, komrnunal-energetik va texnologik jarayonlarga e'tibor berishi, hududda saqlanadigan KTZM o'zni, himoya inshootlari-ningjOY1, tavsifnomasi va boshqa vazifalarga katta e'tibor beriladi. QBTI o'sha obyektning fuqaro rnuhofazasi shtabi tomonidan oldin-dan rejalashtiriladi va favqulodda holatda qo'l ostidagi kuchlar, rna-b-lag'lar, texnikalar, bajaradigan ish hajmi aniqlashtiriladi.

REFERENCES

1. Tog'aymurodov J., Toshtemirova G. JAHON SIYOSATIDA GLOBALLASHUVNING O'RNINI //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – T. 1. – №. 9. – C. 9-11.
2. Togaymurodov J. SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 215-218.
3. Togaymurodov J. K. THE LEGACY LEFT BY BOTIR ZAKIROV //European Science Methodical Journal. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 186-191.
4. Togaymurodov J. K. A LOOK AT THE ZAKIROV DYNASTY //Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 152-156.
5. Yunusova S. M. Paraphrases related to the language of advertising //International Journal of Linguistics, Literature and Culture. – 2021. – T. 7. – №. 4. – C. 236-240.
6. Yunusova S. M., Abdusattorova K. H. NAVRUZ IN THE TEXT OF MODERN UZBEK ADVERTISING //INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. – 2024. – T. 1. – №. 6. – C. 42-47.
7. Юнусова III. Non-linguistic means used in advertising texts //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – T. 2. – №. 1/S. – C. 490-496.
8. Юнусова III. Парафразы в языке рекламы //Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 291-295.
9. Mukhamedumarovna Y. S. FUNCTIONS OF NON-LINGUISTIC MEANS IN ADVERTISING TEXTS //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 235-238.

10. Shaxnoza Y. TURKIY TILLAR REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK TADQIQI (Qozoq tilidagi reklama matnlari misolida) //Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 23-26.
11. Yunusova S. ON ADVERTISEMENT LEXIS. SLOGAN BASED RESEARCH //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 3. – С. 69-71.
12. Юнусова Ш. ҚАЗАҚ ТІЛІДІ ЖАРНАМА МӘТІНІНІҢ ЛИНГВИСТИКАЛЫҚ СИПАТЫ //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 56-58.
13. Юнусова Ш. Ўзбек тилидаги рекламаларнинг лингвистик хусусиятлари //Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 46-48.
14. Юнусова Ш. М., Юнусова Н. М. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ОБУЧАЮЩЕЙ СРЕДЫ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ОСНОВАМ РАБОТЫ В ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ" LINUX" //Экономика и социум. – 2018. – №. 9 (52). – С. 482-484.
15. Dek-Khenovna K. N., Batirovna M. M. To the study of the role of pronouns and pronominal words in Korean language (on elementary level teaching material) //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-1 (73). – С. 47-52.
16. Mukhiddinova M. ABOUT THE PRAGMATICS OF DEACTIVE PRONOUNS IN THE KOREAN LANGUAGE //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
17. Mukhiddinova M. A question about pronouns in a Korean sentence //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 208-211.
18. Mukhiddinova M. PRONOUNS IN COMMUNICATIVE SENTENCES IN KOREAN //ТОШКЕНТ-2021. – Т. 52.
19. Ganiyeva N. A. et al. Assessment of clinical and diagnostic aspects of atherosclerosis in patients with systemic scleroderma //湖南大学学报 (自然科学版). – 2023. – Т. 50. – №. 07.
20. Bekenova G. T. Study of damage to the cardiovascular system in patients with systemic scleroderma //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 13. – С. 19-25.
21. Mukhammadieva S. M., Bekenova G. T., Abdieva Y. A. Effectiveness of vitamin D in the treatment of bone remodeling in ankylosing spondyloarthritis //European journal of molecular medicine. – 2022. – Т. 2. – №. 2.
22. Б е к е н о в а Г. Т., Кенжаева Д. Х., Абдуллаева Г. Д. Оценка эффективности и отдаленных результатов лечения больных ревматоидным артритом //Вестник Совета

- молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2016. – Т. 5. – №. 4 (15). – С. 11-15.
23. Mavlyanov I. R., Bekenova G. T., Mavlyanov S. I. Modern Approaches to the Treatment of Rheumatoid Arthritis: Issues of Low Efficacy of Pharmacotherapy from the Point of View of Treatment Adherence //International Journal of Integrative and Modern Medicine. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 120-129.
24. Berdiyeva D. U. et al. Evaluation of the effectiveness of target therapy in the treatment of patients with polyangiitis granulomatosis //湖南大学学报 (自然科学版). – 2023. – Т. 50. – №. 07.
25. Зияева Ф. К. и др. Особенности поражения нервной системы при анкилозирующем спондилоартрите: дис. – Ташкент, 2023.
26. Bekenova G. T. et al. IMPORTANCE OF PULSE-THERAPY IN PERIPHERAL VASCULAR DAMAGE IN SYSTEMIC SCLERODERMA. – 2024.
27. Bekenova G. T. et al. Terapevtik hamkorlikni optimallashtirish usullari. – 2024.
28. Bekenova G. T. et al. Revmatoid artritli bemorlarda farmakoterapiyani samaradorligini psixofenotipga bog 'liqligi. – 2024.
29. Ганиева НА Д. Э. Р., Зияева Ф. К., Бердиева Д. У. Тизимли склеродермия билан касалланган беморларда юрак зарарланишини эхокардиография кўрсаткичлари бўйича баҳолаш: дис. – “PROFESSOR TUXTASIN SOLIYEVICH SOLIYEV TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN «ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO MUAMMOLAR”/Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallarinig to'plami, 2024.
30. Бекенова Г. Т., Набиева А. Х., Матчанов С. Х. Системная склеродермия у мужчины молодого возраста: дис. – “PROFESSOR TUXTASIN SOLIYEVICH SOLIYEV TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN «ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO MUAMMOLAR”/Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallarinig to'plami, 2024.
31. Ганиева Н. А. и др. Оценка атеросклеротического поражения сонных артерий у больных системной склеродермией : дис. – Ташкент, 2023.
32. Ганиева Н. А. и др. TIZIMLI SKLERODERMIYADA ERTA ATEROSKLEROZ RIVOJLANISHIDA XAVF OMILLARINI BAHOLASH. – 2023.

33. Б е к е н о в а Г. Т. и др. TIZIMLI SKLERODERMIYA VA YONDOSH KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA PULS TERAPIYA O'TKAZISH. – 2023.
34. А р и п о в а Н. А. и др. Изменения гемостаза у больных ревматоидным артритом в сочетании с ишемической болезнью сердца : дис. – Ташкент, 2023.
35. Г а н и е в а Н. А. и др. Значения интерлейкина-6 при системной склеродермии : дис. – Санкт-Петербург, 2023.
36. Н а б и е в а Д. и др. TIZIMLI SKLERODERMA BILAN OG 'RIGAN BEMORLARDA YURAK VA QON TOMIR ZARARLANISHINI ELEKTROKARDIOGRAFIK BAHOLASH. – 2023.
37. Н а б и е в а А. Х., Бекенова Г. Т., Матчанов С. Х. Системная склеродермия. – 2023.
38. Н а б и е в а А. Х. и др. Приверженность проводимой терапии среди больных терапевтического профиля //Вестник магистратуры. – 2023. – №. 2-1 (137). – С. 16-20.
39. Nabiyeva A. X., Bekenova G. T., Matchanov S. X. TIZIMLI SKLERODERMIYADA QON TOMIR SHIKASTLANISHINI ANIQLASH //Innovations in Technology and Science Education. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 196-199.
40. Nabiyeva A., Bekenova G. IMPORTANCE OF PULSE THERAPY IN SYSTEMIC SCLERODERMA //Ученый XXI века. – 2022. – №. 1 (82). – С. 14-17.
41. Б е к е н о в а Г. Т., Аскарров Н. Л. ОПРЕДЕЛИТЬ СТЕПЕНЬ ПРИВЕРЖЕННОСТИ К ТЕРАПИИ БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ //БОТКИНСКИЕ ЧТЕНИЯ. – 2022. – С. 31-32.
42. Б е к е н о в а Г. Т. The role of conducted therapy adherence in therapeutic patients. – 2022.
43. Б е к е н о в а Г. Т., Аскарров Н. Л. РОЛЬ ТЕМПЕРАМЕНТА В ПРИВЕРЖЕННОСТИ К ПРОВОДИМОЙ ТЕРАПИИ //Медицинская реабилитация: научные исследования и клиническая практика. – 2022. – С. 40-40.
44. Б е к е н о в а Г. Т. и др. Взаимосвязи темперамента и приверженности к проводимой терапии. – 2022.
45. Б е к е н о в а Г. Т., Хасанова Ш. А., Алимова Н. З. ПРОБЛЕМЫ ЛЕЧЕНИЯ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА //EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. – 2017. – С. 107-108.

